



PAREMIYALARNING LINGVOSOTSIOMADANIY XUSUSIYATLARI

Shaxnozaxon Komolova Adxamovna

komolova-shahnoza@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11380805>

Tildagi paremiologik fondning lingvosotsiomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishda tilshunoslikning sotsiolingvistika tarmog'i bilan bog'liq bo'lgan kishilik jamiyatining ijtimoiy tuzilishi, yosh o'rtasidagi o'zaro tafovut, insonlarining madaniy bilim saviyasi, muloqotdagi nutqiy ko'nikmasi, sotsial jihatdan jamiyatdagi o'rni va yashash xududi kabilar hisobga olinadi. Paremiyalarni sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish turli xalqlarning sotsial jihatdan turmush sharoitlaridagi o'xshashlik va farqli xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Lingvosotsiomadaniy xususiyat xalqning ijtimoiy va madaniy hayotini lisoniy birlikda ifodalanishini anglatadi. Har bir xalqning sotsiomadaniyatini uning paremiologik fondi o'zida aks ettiradi.

Sotsiomadaniy masalalar so'nggi bir necha yil ichida rus faylasuflari va sotsiologlari tomonidan o'rganildi. Ural sotsiologik maktabining asoschisi L. N. Kogan birinchilardan bo'lib bu masalani ishlab chiqqan.¹ "Madaniyat sotsiologiyasi" termini birinchi bo'lib Maks Adler tomonidan qo'llanilgan.²

Xalqlarning madaniyatiga xos xususiyatlar lingvosotsiomadaniy metod orqali aniqlanadi. Lingvosotsiomadaniy metod til va madaniyat tushunchalari birlashmasidan tashkil topgan. Sotsiolingvistika til bilan jamiyat o'rtasidagi masalalarning ikki tomonlama xususiyatlarini tadqiq etsa, lingvokulturologiya esa mana shu jamiyat tomonidan yaratilgan madaniyatning til bilan aloqasini tadqiqi bilan shug'illanadi. Tildagi leksikaning o'ziga xos madaniy va sotsial jihatlarini tahlil qilish uchun rus olimasi Ye.V.Belik o'zining tadqiqotida "Lingvosotsiomadaniy yondashuv" tushunchasidan foydalanishni taklif qilgan³. Lingvosotsiomadaniy tahlilning vazifasi til birliklarida aks ettirilgan sotsial omillar va milliy madaniy stereotiplarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Demak, lingvosotsiomadaniy tahlil lingvistik tahlil bilan birgalikda xalqning milliy- madaniy va ijtimoiy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi.

¹ Нархова Е.Н., Нархов Д.Ю. Социология культуры. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета, 2019. – С. 6.

²<https://ru.wikipedia.org/wiki>

³Белик Е.В. Лингвокультурологические и гендерные особенности лексики и фразеологии современного английского языка : На материале лингвокультурологического поля "мужчина и женщина (в обществе и семье)" : дис. ... кандидата филол. наук : 10.02.04 / Моск. пед. гос. ун-т. - Москва, 2003. - 62 с.





Nemis va o'zbek tillaridagi paremiyalarning sotsiomadaniy xususiyatlari har ikkala xalq jamiyatining ijtimoiy tuzilishi va sotsial hayotidagi ijtimoiy munosabatlarida aks etadigan madaniyati orqali ko'rib chiqadi. Madaniyat antropologlarning fikriga ko'ra, to'rtta elementdan iborat⁴. Ular quyidagilar:

1. Tushunchalar. Tushunchalar har bir tilda mavjud va ular xalq madaniyatini turlicha aks ettiradi. Masalan, nemis tilida *essen-yemoq* so'zi faqat odamlarga tegishli tushuncha bo'lib, hayvonlarning oziqlanishini ifodalash uchun *fressen-yemoq* so'zi qo'llaniladi. O'zbek tilida esa ikkala tushuncha ham faqat bitta so'z bilan ifodalanadi.

2. Munosabatlar. Madaniyatning bu elementi orqali tushunchalarning o'zaro makon va zamonda, ma'lum bir vaqt oraliqidagi aloqadorligi tushuniladi. Masalan, har bir xalq madaniyatida oq va qora rang doimo qarama-qarshi munosabatni ifodalaydi. *Qora itning uyati oq itga tegar. Auch eine schwarze Kuh gibt weiße Milch* (Qora sigir ham oq sut beradi), *Auch ein schwarzes Huhn legt weiße Eier* (Qora tovuqdan ham oq tuxum tug'iladi). kabilar tushunchalar orasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

3. Qadriyatlar. Har bir madaniyat o'zining turli xil diniy qarashlari va e'tiqodlariga ega. Ular orqali xalqning qadriyatlari aniqlanadi. Ular axloqiy tamoyillarning asosini tashkil qiladi.


4. Qoidalar. Ular odamlarning xulq-atvorini nazorat qilish uchun jamiyatning qabul qilingan qadriyatlariga muvofiq yaratilgan.

Ushbu elementlar odamlarning xatti-harakatlarini ma'lum bir madaniyat qadriyatlariga muvofiq tartibga soladi. Tilimizdagi paremiyalarda madaniyatning to'rtta elementi bilan birga sotsiomadaniy fon ham mavjud:

1. Tarixiy kontekst: xalq paremiyalarining ko'pchiligida tarixiy voqealar yoki an'analar o'z ifodasini topgan. Masalan, nemis xalqining *Morgenstund hat Gold im Mund-Ertalabki vaqt naqdgina baxt* paremiyasidan mehnat xalqning sotsial hayotida tarixiy ahamiyatga ega ekanligini, ertalabki faollik va mahsuldorlikning qiymati yuqori baholanishini anglash mumkin.

2. Hayotiy tajriba: xalq paremiyalari ajdodlarimizning yillar mobaynida to'plangan tajribalari asosida shakllangan donolikni ifodalaydi. Masalan, *Was du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen-Bugungi ishni ertaga qo'yma* paremiyasi orqali qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish muhimligi ta'kidlanadi.

3. Ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar: nemis va o'zbek xalq paremiyalari





halollik, mehnasevarlik, adolat va oilaviy qadriyatlar kabi jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va qadriyatlarini aks ettiradi. Misol uchun, *Ehrlich währt am längsten-Halol bo'lsang uzoqqa borasan* maqoli orqari har ikkala xalq hayotidagi sotsial munosabatlarning qiymati baholangan.

4. Diniy va madaniy ta'sirlar: maqol va matallarda xalqning diniy qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari ham o'z ifodasini topadi. Masalan, *Alles hat ein Ende, nur die Wurst hat zwei-Hamma narsaning oxiri bor*.

Xalq paremiyalarni sotsiomadaniy jihatdan o'rganish xalqining tarixi, madaniyati va qadriyatlarini, shuningdek, insonlarning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishga ta'sirini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Har bir xalqning betakror milliyligi, mentaliteti va qadriyatlari uning paremiologik birliklarda o'z aksini topadi. Nemis va o'zbek xalqining milliy fondiga aylangan paremalari ham har ikki xalqning o'zligini namoyon etadi. Paremiyalar tarkibida xalq madaniyatini aks ettiruvchi lingvokulturemalar mavjud. Lingvokulturemalar haqida, professor A.E.Mamatov "muayyan bir xalqning, millatning moddiy va ma'noviy madaniyatini, butun borlig'ini til va nutq birliklarida ifodalaydigan kompleks lisoniy-madaniy birlikdir" deb ta'riflaydi⁵. Paremiyalar tarkibida lingvokulturemalarning mavjudligi xalqqa xos lingvomadaniy xususiyatlarni belgilab beradi. Lingvokulturemalar mavjud paremiyalarni lingvosotsiomadaniy tahlil qilish orqali har ikkala xalqning ijtimoiy-siyosiy va sotsial hayotidagi madaniy asoslar aniqlanadi. Paremiyalar tarkibidagi yangi sotsiomadaniy ma'lumotlar kodlangan denotatsiyani ochib uchun semantik kalit vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нархова Е.Н., Нархов Д.Ю. Социология культуры. Учебное пособие.
2. Екатеринбург Издательство Уральского университета, 2019. – С. 6.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
4. Белик Е.В. Лингвокультурологические и гендерные особенности лексики
5. и фразеологии современного английского языка : На материале лингвокультурологического поля "мужчина и женщина (в обществе и семье)" : дис. ... кандидата филол. наук : 10.02.04 / Моск. пед. гос. ун-т. - Москва, 2003. - 62 с.
6. Маматов А.Э. Лингвомаданиятшунослк: лингвокультурема ва
7. логоепистема//Хорижий филология. №1(54), 2015.-Б.14.

⁵ Маматов А.Э. Лингвомаданиятшунослк: лингвокультурема ва логоепистема//Хорижий филология. №1(54), 2015.-Б.14.

